

**Nuriddinova Durdona***Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Annatatsiya:** Tarbiyaviy jarayon- bu o'qituvchi va o'quvchi ya'ni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida aniq maqsad asosida tashkil etiladigan hamkorlik faoliyatining rivojidir.Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi shaxsida ongning shakllanishi borishi, his- tuyg'ularining rivojlanishi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlarning hosil bo'lishi kabi o'zgarishlar kuzatiladi.

**Kalit so'z:** tarbiyaviy jarayon, ijtimoiy hayot, boshlang'ich sinflar,tarbiyachi, tarbiyalanuvchilar,ongning shakllanishi.

**KIRISH**

Bugungi kunda ta'lim sifatlarini oshirish va ta'lim sohasini yanada rivojlantirish barcha pedagoglar oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Hozirgi kunda ta'lim- tarbiya masalalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini olib kirish orqali o'quvchilar bilimini yanada rivojlantirish ularning dunyoqarashini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Mazkur mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator qaror va qonunlar,me'yoriy hujjalalar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ,bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

- Tarbiya jarayoni umumiy ijtimoiy maqsadni hal etishga yo'naltiriladi va aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etishda hal etiladigan vazifalar tizimidir.

- Tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyuştirish va rahbarlik, shuningdek, o'quvchi shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi. U ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadini tushunadi, unga erishish yo'lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan xabardor, tarbiya shakl, metod, vositalarini to'g'ri tanlay oladi va tarbiya jarayoniga tadbiq etadi.Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda, ilmiy tahlil qilish mumkindir.

- Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, unda ota - ona, o'qituvchi, jamoatchilik qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylilik bo'lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'lnlarni (oila, maktab, o'quvchilar jamoasi, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, keng jamoatchilikni)

birgalikda ish ko'rinishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

• Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat.

• Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir.

• Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyuştirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va xohishlarini ifodalaydi.

Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari:

1. aniq maqsadga yo'naltirilganlik;  
2. uzoq muddat davom etishi(tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi);

3. yaxlit, tizimli tashkil etilishi;  
4. ikki tomonlama aloqa hamda qarama- qarshiliklarning mavjud bo'lishi.

Tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uning maqsadi, shakllanishi, metodlari, vositalarini, mavjud pedagogik shart- sharoitlar, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash ehtiyojiga egaliga bog'liq.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

- tarbiya maqsadining aniqligi;
- bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati;
- ixtiyorilik;
- yo'naltirilganlik;
- o'z-o'zini anglash.

#### XULOSA

Bola o'qishni, tarbiya olishni ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilishi kerak, shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1 Epstein, J. L., & Dauber, S. L. (1991, January). School programs and teacher practices of parent involvement in inner-city elementary and middle schools. Elementary School Journal, 91(3), 289-305

2 Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan (o"quv uslubiy majmua) 2019 yil 170 bet («Filosofiya», «O'zb», 76. 45-bet).

3 Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.- T.: "Tib-kitob", 2010.

4 Ismoilova Z, Tarbiya ishlar metodikasi. T.: Istiqlol, 2003.